

Samarqand davlat pedagogika instituti "Rektor stipendiyasi" tanlovi NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1.1. "Rektor stipendiyasi" – (keyingi o'rinlarda stipendiya deb yuritiladi) Samarqand davlat pedagogika instituti (keyingi o'rinlarda institut deb yuritiladi) iqtidorli talabalarining ilmiy, ijodiy, san'at va sport sohasidagi yutuqlarini rag'batlantiruvchi mukofotdir.

1.2. Stipendiya talabalarning institut miqyosida erishgan eng yuqori natijasi va yutug'i sifatida e'tirof etiladi.

1.3. Stipendiant — o'qish davomida ma'lum bir tanlovlardan g'olib bo'lib stipendiya oluvchi talaba.

1.4. Komissiya – stipendiya tanlovini o'tkazuvchi ishchi guruh.

1.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari (darajasi jihatidan mazkur stipendiyadan yuqori turishi, shuningdek, mazkur stipendiya faqat institut doirasida iqtidorli yoshlarni kashf etish va qo'llab-quvvatlashga qaratilganligini inobatga olib) sovrindorlari mazkur tanlovda ishtirok etishi mumkin emas.

1.4. Stipendiya belgilangan muddatda har oyida to'lab boriladigan to'lov bo'lib, stipendiyaning bir oylik summasi bazaviy stipendiyaning bir barobari miqdorida belgilanadi.

1.5. "Rektor stipendiyasi" sohiblariga talabalik vaqtida stipendiya to'lovlari amalga oshiriladi.

1.6. "Rektor stipendiyasi" fakultetlar kesimida bir nafar g'olib bo'lgan, nizom talablariga mos keluvchi nomzodlar orqali aniqlanadi.

1.7. "Rektor stipendiyasi" talabalarning ilmiy-ijodiy izlanishlari, ilmiy innovatsion ishlanmalari, xorijiy tilni bilish darajasi, respublika va xalqaro ko'rik-tanlovlardagi muvaffaqiyatlari va boshqa yutuqlarini inobatga olgan holda komissiya tomonidan belgilanadi.

II. Stipendiyaning maqsad va vazifalari

2.1. Talabalar akademiyasi a'zolarinining ilmiy-ijodiy faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash.

2.2. Institutda iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini yanada rivojlantirish orqali Talabalar akademiyasi a'zolarini safini kengaytirish hamda ularni istiqbolda yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlariga ko'maklashish.

ASLIGA TO'G'RI

III. Stipendiyaga nomzodlarni saralash tartibi

3.1. Stipendiyani qo'lga kiritish uchun Talabalar akademiyasining a'zolaridan 2-3-4-bosqich talabalari hujjat topshirishlari mumkin. Tanlov yilda bir marta sentabr oyining 25-sanasiga qadar o'tkaziladi.

3.2. Nomzodlarni saralovchi Komissiya tarkibi quyidagicha:

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor – rais
2. Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i – kotib
3. Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i - a'zo
4. Institut Yoshlar Ittifoqi Boshlang'ich tashkiloti yetakchisi - a'zo
5. Registrator ofisi boshlig'i - a'zo

Komissiya tarkibiga zarur hollarda rais roziligi bilan qo'shimcha mutaxassis jalb etilishi mumkin, bunda tarkib a'zolari soni toq ekanligiga ahamiyat qaratiladi.

3.3. Nomzodlar quyidagi hujjatlar asosida qabul qilinadi:

- Ilmiy rahbari tavsiyanomasi;
- Talaba tomonidan chop etilgan ilmiy ishlarning bosma hamda elektron nusxalari (kamida 2 ilmiy maqola);
- E'lon qilingan ishlari ro'yxati;
- Ma'lumotnoma;
- Pasport nusxasi;
- Xalqaro va respublika tanlovlar g'olibligi, patent, mualliflik guvohnomalari to'g'risidagi diplom yoki sertifikat nusxalari (mavjud bo'lganlari);
- Xorijiy til bilish sertifikati (agar mavjud bo'lsa);
- Talabaning akademik ma'lumotnomasi (Minimal GPA 4.0).

3.4. Stipendiya tanloviga nomzodlar 3 bosqichli sinovlar asosida saralanadi:

Birinchi bosqich – Ilmiy-innovatsion loyihasi bo'yicha taqdimot qiladi (100 ball). O'tish bali 60 ball.

Quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Nº	Mezonlar	Asos (fakt)	Ball	Izoh
1	G'oyaning ilmiy va innovatsion yangiligi	Amalga oshirilgan yoki taklif	20 ball	Ishtirokchi tomonidan amalga oshirgan ishlari yoki taklif etayotgan yangi g'oyasining taqdimoti ko'rib chiqilib, dolzarbligi jihatidan baholanadi. Go'yani amalga oshirish mexanizmini to'liq ochib berishi
2	G'oyaning aniq bir muammoning yechimiga yo'naltirilganligi	etilayotgan yangi loyihaning taqdimoti	20 ball	
3	Mavjud analoglaridan afzalligi	asosida	20 ball	

ASLIGA TO'G'RI

4	G'oyaning amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar		20 ball	kerak va kutilayotgan natijani aniq dalillar bilan ko'rsatib berishi kerak bo'ladi.
5	Taqdim etilayotgan g'oyaning mukammalligi	O'rnatilgan tartibdagi savol-javoblar asosida	20 ball	Hakamlar hay'ati a'zolarining savollariga berilgan javoblarga qarab baholanadi.
Jami:			100 ball	

Ikkinchi bosqich – saralash bosqichi bo'lib, mazkur bosqichda nomzodning xorijiy tillarini (MDH mamlakatlari tillaridan tashqari, kamida bitta chet tilini) bilish darajasi baholanadi. Xorijiy til yo'nalishi talabalar o'z yo'nalishidan boshqa bir xorijiy tilni bilish darajasi aniqlanadi. Jami 100 ball asosida baholanadi. Xorijiy tilni bilish darajasiga ega talabalar quyidagicha ballar asosida baholanadi.

A1 – 20 ball

A2 – 40 ball

B1 – 60 ball

B2 – 80 ball

C1 – 100 ball

C2 – 100 ball

Xorijiy til bilish sertifikatini mavjud bo'lmagan talabalar suhbat asosida baholanadi.

Uchinchi bosqich – nomzodlar institutdagi o'qishi davrida erishgan yutuqlarini komissiyaga taqdimot asosida havola etadi jami (100 ball). Nomzodlar ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-huquqiy savodxonligi bo'yicha suhbat qilinadi (50 ball).

- Yakka mualliflikda maqola uchun jami - 30 ball. (bir maqola uchun 10 balldan) (respublika va xalqaro konferensiyalarda chop etilgan tezis uchun 5 balldan). Hammualliflikdagi maqolalar muallifalar sonidan kelib chiqib hisobga olinadi.

- Patent, mualliflik guvohnomasi (DGU) uchun – 20 ball (sonidan qat'iy nazar).

- Respublika va xalqaro ilmiy-ijodiy va sport tanlovlarida erishgan yutuqlari (1-2-3-o'rinlar) uchun jami - 20 ball. Onlayn tanlovlar g'olibligi hisobga olinmaydi.

- Viloyat va respublika olimpiadasida 1-2-3-o'rin g'olibligi uchun 10 ball, Xalqaro olimpiadada 1-2-3-o'rin g'olibligi 10-ball. Jami - 20 ball. Onlayn olimpiadalar hisobga olinmaydi.

- Publitsistik maqolasi uchun sonidan qat'iy nazar - 10 ball

Komissiya tomonidan nomzodlarning birinchi, ikkinchi va uchinchi bosqichda to'plagan ballari umumlashtirilib, eng yuqori natijaga erishganlar

ASLIGA TO'G'RI

(fakultetlar kesimida bir nafardan) "Rektor stipendiyasi" sohibi etib tayinlanadi hamda maxsus guvohnoma bilan taqdirlanadi.

3.5. Stipendiantlar ro'yxati institut Kengashi qarori asosida rektor buyrug'i bilan tasdiqlanadi va institutning rasmiy saytida e'lon qilinadi.

3.6. Nomzodlarni saralash bo'yicha belgilangan muddatdan kechikib taqdim etilgan hujjatlar qabul qilinmaydi.

3.7. Stipendiantlar keyingi o'quv yilida saralashda takroran ishtirok eta olmaydi.

IV. Stipendiyalarni moliyashtirish manbalari

4.1. "Stipendiya" budjetdan tashqari mablag'lar, homiylik va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar asosida moliyalashtiriladi.

V. Stipendiya sohiblari bilan ishlarni tashkil etish tartibi

5.1. Stipendiantlar keyingi faoliyati davomida ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-ijodiy, ijtimoiy va jamoaviy ishlarida faol bo'lmasa, institutning ichki tartib qoidalariga rioya etmasa institut rektori buyrug'i bilan stipendiya to'lab berish muddatidan avval to'xtatiladi va berilgan guvohnoma bekor qilinadi.

5.2. Stipendiantlarga to'lab boriladigan stipendiya talaba stipendiant bo'lgan vaqt (oktyabr)dan boshlab may (may oyi ham kiradi) oyigacha to'lab boriladi.

VI. Yakuniy qoidalar

6.1. Mazkur nizomda ko'zda tutilmagan qoidalar O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

6.2. Mazkur nizomga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish institut Kengashi qarori asosida amalga oshiriladi.

ASLIGA TO'G'RI

ASLIGA TO'G'RI